



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри ○

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИК

Фавқулодда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев АҚШнинг Ўзбекистондаги Фавқулодда ва мухтор элчиси Жонатан Хеник билан учрашди.



Мулоқот чоғида вазир меҳмонга қутқарувчилар томонидан аҳолини ва ҳудудларни турли хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш борасида амалга оширилаётган ишлар ҳақида маълумот берди. Бу жараёнга энг замонавий технологиялар жалб этилганлиги айтиб ўтилди. Ўз навбати-



да, АҚШнинг Ўзбекистондаги Фавқулодда ва мухтор элчиси Жонатан Хеник суҳбатдошига мазмунли мулоқот учун миннатдорчилик билдириб, қутқарув хизмати фаолиятининг юқори самарадорлигини қайд этди.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси ФВВ ҳозирда АҚШнинг тегишли идоралари билан турли лойиҳалар бўйича ҳамкорлик қилмоқда.

ФВВ Матбуот хизмати.

МАТБУОТ БРИФИНГИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида Фавқулодда вазиятлар вазири томонидан Матбуот брифинги ўтказилди.

Унда ФВВ бошқарма бошлиғи ўринбосари майор Мавлонбек Дўсчанов 2023 йил 10 июлдан 10 августга қадар республикада ҳудудида ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича “Долзарб 30 кун” доирасида амалга оширилаётган тадбирлар хусусида маълумот берди.

Брифингда қайд этилганидек, “Долзарб 30 кун” тадбирлари давомида ёзги дам олиш ва соғломлаштирилиш мавсумида оромгоҳлар, санаторийлар ҳамда бошқа дам олиш ва соғломлаштириш масканларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашга қаратилган профилактик тадбирларни янада кучайтириш, ўта муҳим, тоифаланган ва иқтисодиёт

объектлари, ёниш-портлаш хавфи ҳамда фавқулодда вазият юз бериш даражаси юқори бўлган бошқа объектлар, шунингдек, одамлар кўп йиғиладиган жойларда ёнғин хавфсизлиги талабларига риоя қилинишини таъминлаш, 2023/2024 ўқув йилида олий таълим муассасаларига ўқишга қабул қилиш бўйича тест синовлари ўтказиладиган объектларнинг ёнғинга қарши ҳолатини талаб даражасига келтириш, шунингдек, ўрмон фонди объектларини ёнғиндан кўриқлаш ва уй-жой фонди объектларининг ёнғин хавфсизлигини таъминлаш каби муҳим масалалар асосий йўналишлар этиб белгиланган.

Юқоридаги асосий йўналишлардан келиб чиққан ҳолда жамоат транспортлари, одамлар кўп йиғиладиган жойлар ва автомобиль йўлларининг катта чорраҳаларидаги электрон таблолар ва ахборотни етказувчи бошқа техник воситаларга “Долзарб 30 кун” тадбири ва ёнғин хавфсизлиги қоидаларини тарғиб қилувчи материаллар жойлаштирилади, мутасадди хизматлар билан биргаликда бозор ва савдо мажмуаларида ёнғин хавфсизлигини таъминлаш чоралари кўрилади.

Республика ҳудудидаги хавфли ишлаб чиқариш объектларида, шу жумладан, газ тўлдириш шохобчалари ва пунктларида, автомобил-

ларга ёқилги қуйиш ва газ тўлдириш шохобчаларида ёнғин, саноат хавфсизлиги ва меҳнат муҳофазаси қоидаларига риоя қилиниши белгиланган тартибда ўрганилади, ўрмон фонди объектларида ёнғинларнинг олдини олишга қаратилган ишлар янада кучайтирилади. Албатта, ушбу тадбирларда нафақат мутасадди

соҳалар, балки вазифаси, фаолиятдан қатъи назар ҳар бир фуқаро фаол иштирок этиши, эзгу ва хайрли ишларга муносиб ҳисса қўшиши зарур.

Зеро, аҳоли ва ҳудудлар муҳофазаси – доимий ҳамда муқаддас вазифамиздир.

ФВВ Матбуот хизмати.



КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ

Наманган вилояти ФВБ таркибий ва ҳудудий бўлим ҳарбий хизматчилари ҳамда хизматчилари иштирокида “Коррупцияга қарши курашиш – барчамизнинг бурчимиз” мавзусида семинарлар ташкил этилмоқда. Жумладан, Уйчи тумани фавқулодда вазиятлар бўлимида бошқарма шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи подполковник Абдужаббор Мўминов раҳбарлигида бўлим ҳарбий хизматчилари ва хизматчилари билан учрашув ўтказилди.

Тадбирда қонун устуворлигини таъминлаш, ҳарбий хизматчилар ва хизматчилар ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилиш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тўғрисида фикр юритилди.



Шунингдек, айрим ҳарбий хизматчилар томонидан хизмат интизоми ва қонунчиликни бузиш ҳолатлари ҳанузгача содир этилаётганлиги, фуқароларга нисбатан қўпол муносабатда бўлиб, ҳарбий хизматчи деган юксак номга доғ тушириб келинаётганлиги қайд этилди.

Учрашувда ходимларга амалдаги қонунчилик талабларига мувофиқ иш юритиш, ўз бурчига ҳалол, виждонан ёндашиш, жиноят учун жазо муқаррарлиги ўқитилди.

Ўткирбек КАЛОНОВ,
Наманган вилояти
ФВБ шахсий
хавфсизлик
бўлими ходими,
подполковник.

Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi, Toshkent harbiy prokurori o'ribosari adliya mayori F.Saysultonov va Ichki ishlar bosh boshqarmasi YHXB YPX brigadasi 1-batalyon komandirining o'rinbosari mayor M.Husanovlar ishtirokida “Yo'l qoidasi – umr foydasi!” va “Korrupsiyaga qarshi kurashni o'zimizni isloh qilishdan boshlaylik!” mavzularida davra suhbatlari tashkil etildi.

HUQUQIY SAVODXONLIK

Tadbir davomida yo'l harakati qoidalariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar, korrupsiyaviy holat-

larning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan ma'lumot berildi. Toshkent harbiy prokurori o'rinbosari tomonidan harbiy xizmatchilarga huquqiy maslahat va tavsiyalar berildi.



Sh.AHMADALIYEV,
tarbiyaviy va
mafkuraviy ishlar bo'limi
boshlig'i, kapitan.

I.KAJANOV,
OAV bilan ishlash
bo'yicha katta texnik,
oddiy askar.

ЁШЛАР – ЭЪТИБОРДА

Бухоро вилояти ФВБ ходимлари бошқармага бириктирилган 715 нафар йигит-қизнинг ҳаёти, уларнинг орзу-мақсадлари билан мунтазам қизиқиб, қатор тадбирларни ташкил қилиб келмоқда. Хусусан, мазкур тадбирлар давомида Бухоро шаҳридаги “Шейхон” МФЙда истиқомат қилувчи бир гуруҳ ёшларнинг ҳолидан хабар олинди.

Маҳаллада истиқомат қилувчи, ногиронлиги бўлган Миршод Яҳёевга моддий ва маънавий кўмак бериш мақсадида, унинг ижтимоий муаммолари ўрганилиб, хонадонда бунёдкорлик, қурилиш-таъмирлаш ишлари олиб борилди. Шунингдек, ушбу

лиги билан суҳбат жараёнида ўз ижтимоий аҳолидан хабардор этар экан, унинг мурожаати асосида хонадонда қурилиш ишлари бошлаб юборилди.

Тадбирлар доирасида мутасаддилар Бухоро шаҳридаги “Мурувват” ногиронлиги бор болалар уйига ташриф буюрдилар. Меҳр-эйтиборга муҳтож қалблар бундан бирдек мамнун бўлдилар.

Ўткир МАМАТОВ,
Бухоро вилояти
ФВБ бошлиғи
ўринбосари,
подполковник.

“ҲАРБИЙ ПРОКУРАТУРА – АРМИЯ ПРОКУРАТУРАСИ”

Бухоро гарнизонида жойлашган ҳарбий қисм ва муассасаларда ҳарбий хизматни ўтаётган аёллар ўртасида “Ҳарбий прокуратура – армия прокуратураси” шиори остида учрашув ўтказилди.

Дастлаб, Бухоро шаҳри ҳокимлиги биносининг мажлислар залида масъуллар то-

нинг ечими тўғрисида тушунчалар берилди.

Бундан ташқари, қонунчиликда хотин-

ўтказилиб, зарур тавсиялар берилди.

Шундан сўнг ҳарбий хизматчи аёллар Бухоро ҳарбий прокуратурасида кутиб олиниб, муқаддам кўп йиллар Қуролли Кучларда қонунийликни таъминлашда ўз бурчини адо этган прокурорлар ёдга олиниб, прокуратуранинг тарихи ҳамда хизмат хоналари билан таништирилиши билан бир қаторда давра суҳбати ўтказилди.

Куннинг иккинчи ярмида ҳарбий хизматчи аёллар учун Бухоро шаҳрида жойлашган “Ниҳол” ресторанида тушлик дастурхони ёзилиб, концерт дастури ташкил этилди.

Тадбир якунида Бухоро шаҳрида жойлашган “АРК” қўргони тарихий мажмусига ташриф буюрилиб, иштирокчиларга тарихий мажмуа фаолияти ҳақида батафсил маълумотлар берилди.

Махаммадjon
БОЗАРМИРЗАЕВ,
Бухоро ҳарбий
прокурори, адлия
подполковниги.



монидан 2002 йил 12 декабрда қабул қилинган «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги қонунда мамлакатимиз хотин-қизлари ҳам ихтиёрий равишда оддий аскар, сержант лавозимларида ҳарбий хизматни ўташлари мумкинлиги белгилаб қўйилганлиги, Қуролли Кучларда ҳарбий хизматчи аёлларнинг мавқеи, ҳарбий хизмат билан боғлиқ муаммолари ва улар-

қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш борасидаги ҳуқуқ ва янгиликлар тушунтирилиб, иштирокчиларнинг саволларига жавоб берилди.

Қолаверса, вилоят Соғлиқни сақлаш бошқармасининг малакали мутахассислари томонидан ҳарбий хизматчи аёллар, лор, окулист, хирург, стоматолог, дерматолог, маммография каби чуқурлаштирилган тиббий кўриклардан

МУАММОЛАРГА ЕЧИМ

Бухоро шаҳар ҳокимлиги биносида Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, ИИБ Қоровул қўшинлари қўмондонлиги ва Миллий гвардия қўмондонлиги билан ҳамкорликда Қуролли Кучлар тизимининг ҳарбий хизматчилари ва уларнинг оила аъзолари ҳамда нафақага чиққан фуқаролар ҳамда ёшлар иштирокида оммавий сайёр қабул ўтказилди.

Тадбирда Республика Ҳарбий прокурорининг ўринбосари Қ.Исроилов, Мудофаа вазирлиги мурожаатлар билан ишлар бошқармаси бошлиғи Б.Атақулов, ФВБ кадрлар бошқармаси бошлиғи С.Югай, ИИБ Қоровул қўшинлари қўмондони ўринбосари М.Миркомиллов, Миллий гвардия қўмондони ўринбосари С.Мамаюсупов ҳамда соҳага тегишли мутахассислар қатнашдилар.

Ўтказилган сайёр ва оммавий қабул жараёнида мурожаатчилар

хизмат жойини ўзгартириш, ҳарбий гувоҳнома ва ҳарбий унвон олиш, имтиёзли гувоҳномага эга бўлиш, ишга тикланиш, СЧР хизмати учун пул бадаллари тўланиши, нафақага чиқиш каби масалаларида амалий ёрдам беришни сўрадилар.

Мурожаатлардан 63 таси ижобий ҳал қилиниб, қаноатлантирилди 15 тасига тушунтириш берилди, 50 таси назоратга олинди.

М.БОЗАРМИРЗАЕВ,
Бухоро ҳарбий
прокурори, адлия
подполковниги.



HARBIY UNVONLAR TOPSHIRILDI

Muhandislik muhofaza va qurilish-tiklash ishlari bosh boshqarmasi ofitserlariga navbatdagi harbiy unvonlarni tantanali topshirish marosimi bo'lib o'tdi.



Tadbirida bosh boshqarma boshlig'i polkovnik N.Saidov so'zga chiqib, harbiy xizmatchilarning mamlakatimizni turli hududlarida olib borayotgan xizmatlari hamda FVV rivojlanishida shijoat va g'ayrat ko'rsatib kelayotganliklarini alohida ta'kidladi va minnatdorchiilik bildirdi. Shundan so'ng 7 nafar harbiy xizmatchigacha "kapitan" va 2 nafar harbiy xizmatchigacha "katta leytenant" harbiy unvon-

lari topshirildi.

Tantana davomida vazirlik tizimida xizmat o'tab kelayotgan katta serjant Murodjon Xudoyberganovni nafaqaga kuzatish tadbiri tashkil qilindi.

Sh.AHMADALIYEV,
tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'limi boshlig'i,
kapitan.
I.KAJANOV,
OAV bilan ishlash bo'yicha katta texnik.

ЖАДАЛЛИК БИЛАН

Сергели туманида жойлашган деҳқон ва автомобиль бозорлари ҳамда кўнгилочар майдонларда ёнғин ва бошқа тусдаги фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, ёнғин хавфсизлигини таъминлаш юзасидан учрашув ва суҳбатлар олиб борилмоқда.

Мазкур тadbirlar davomida ishchi-xodimlarga birламчи ёнғин ўчириш воситаларидан фойдаланиш, ёнғин вақтида ҳаракатланиш қоидалари тушунтирилмоқда.

Бозор ҳудудида фавқулодда вазият рўй берганда эвакуация йўлагидан ёнғин автоуловларининг хавфсиз ва раван ҳаракатланишини таъминлаш юзасидан амалий машғулотлар ўтказилиб, фуқароларга жами 1200 дана тарғибот флаерлари тарқатилиб, бозор радио тармоғи орқали 84 мартаба радио эшиттиришлар олиб борилди.

А.ТУРАХАНОВ,
Сергели тумани ФВ бўлими бошлиғи,
подполковник.



UCHRASHUV

Omazor tuman FV bo'limi va mutasaddi xizmatlar xodimlari hamkorligida Qora-qamish dehqon bozorida uchrashuv o'tkazildi.

Tadbirida bozor rahbari hamda ishchi-xizmatchilarga jinoyatchilikning oldini olish, video-kuzatuv kameralarini soz holda saqlash,

Бугунги кунда эътиборсизлик оқибатида кўп-лаб ер ости сув олгичлари, яъни гидрантларнинг қаровсиз қолиши ёки кўмиб юборилиш ҳолатлари кузатилмоқда.

САМАРАЛИ ВОСИТА



Ҳар бир сония ғанимат ҳисобланган вазиятларда ёнғинга қарши сув манбалари, ҳовузлар, гидротехник иншоотлар ва ер ости сув олгичларидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли уларни ҳар 6 ойда, йилига 2 мартаба ўрнатиш ишларини олиб бориш лозим ҳисобланади.

Бўстонлиқ туманида ҳам бу борада соҳа

масъуллари билан ҳамкорликда ўрганиш ишлари олиб борилди. Ўрганиш жараёнида аниқланган камчиликларни бартараф қилиш юзасидан тегишли чора-тадбирлар амалга оширилди.

Жаҳонгир АБДУҚАЮМОВ,
Ихтисослашган кўп тармоқли бошқарма ОЁХТТЭБ П ва НБ ўринбосари,
подполковник.

QUTQARUV

Toshkent shahar FVBga Mirzo Ulug'bek tumani, Oltintepa ko'chasida joylashgan xonadonlarning birida fuqaroninig tuproq ostida qolib ketganligi bo'yicha xabar kelib tushgan.

Ushbu hodisaning sodir bo'lishiga uy egalari tomonidan kanalizatsiya

quvurini ta'mirlash maqsada



dida qazilgan chuqirning o'pirilishi sabab bo'lgan.

Voqea joyiga Toshkent shahar FVB bosh-

lig'i general-mayor R.Haydarov ham tashrif buyurdi. Zudlik bilan olib borilgan harakatlar natijasida fuqaro xavfsiz joyga olib chiqildi hamda tez tibbiy yordam xizmati xodimlariga topshirildi.

Ayni vaqtda fuqaroning ahvoli yahshi.

A.RUSTAMOV,
Toshkent shahar FVB JTvaOAVBHQQ boshlig'i, kapitan.

ЭПИДЕМИЯ ВА УНГА ҚАРШИ КУРАШ

Эпидемия – алоҳида хавфли инфекцияга тегишли бўлмаган, юқиш манбаи битта ёки юқиш омили бир хил бўлган одамларнинг гуруҳ бўлиб, шунингдек, бир аҳоли пунктида 50 ва ундан ортиқ кишининг касалланиши орқали тарқалади. Эпидемияни, асосан, инфекция касалликлар юзага келтиради.

Инфекцион касалликнинг инкубацион даври микроорганизмнинг инсонга юқишидан токи касалликнинг юзага чиқишигача бўлган даврни ўз ичига олади. Инкубацион даврнинг давомийлиги ҳар бир инфекция касалликда турлича, яъни бир неча соатдан бир неча ҳафта, ҳаттоки, бир неча йилгача бўлган даврни

ташкил қилади.

Эпидемиянинг олдини олишнинг энг самарали усули, бу – шахсий гигиенага эътибор бериш, ювинадиган буюмларни алоҳида ва тоза сақлаш, ётоқ тўшакларини вақти-вақти билан тозалатиш, хонадонни, атроф-муҳитни тоза сақлаш, жумладан, чиқиндиларни ўз вақтида



чиқариб туриш, касаллик тарқатувчи паразитларнинг уйда кўпайиб кетишига йўл қўймаслик ва ҳ.к.

Агарда ҳар биримиз юқорида келтирилган қоидаларга риоя қилсак, инфекция касалликларнинг юзага

келиш эҳтимолини камайтирган ва эпидемик фавқулодда вазиятлар юзага келишининг олдини олган бўламиз.

Р.ХАЛИЛОВ,
Ихтисослашган кўп тармоқли бошқарма ОЁХТТЭБ П ва НБ инспектори, лейтенант.

noqonuniy savdoga yo'l qo'ymaslik, favqulodda vaziyat hamda yong'in yuz berganda barta-raf qilish usullari va is gazidan zaharlanishning oldini olish, o'ta xavfli va yuqumli kasalliklarga qarshi olib boriladigan

epidemiologik chora-tadbirlar xususida aytib o'tildi va tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Jamshid PO'LATOV,
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinosari,
podpolkovnik.



САВДО МАРКАЗИДА ЎҚУВ

“Имкон савдо мажмуаси” Ёзёвон филиалида “Ёнғин содир бўлганда объект тузилмасининг доимий тайёргарликдаги хизматлар билан ҳамкорликдаги ҳаракатлари” мавзусида махсус-тактик ўқув машқи ўтказилди.



Машқнинг назарий қисмида Фаргона вилояти ФВБ бошлиғи ўринбосари в.в.б. подполковник З.Кадиров машқ тартиби ва мақсади тўхталиб, ҳозирги кунда юртимизда ёнғинга қарши кураш тадбирларининг долзарблигига эътибор қаратди.

Амалий босқичда объект иккинчи қаватида содир бўлган ёнғин тўғрисида ёнғин хавфсизлиги хизматига хабар берилди. Шундан сўнг ёнғин хавфсизлиги хизмати қутқарувчилари томонидан бино ичида жабрланган 2 нафар фуқаро мавжудлиги аниқланиб, уларга биринчи ёрдам кўрсатган ҳолда бинодан олиб чиқилди ва тиббий ёрдам хизматига топширилди. Объектининг жами 25 нафар

ишчи-ходими хавфсиз ҳудудга эвакуация қилинди. Шундан сўнг тезкор ҳаракатлар билан бино иккинчи қаватида содир бўлган ёнғин қуршаб олинди ва бартараф этилди.

Машқ якунида ФВВ масъул ходими полковник Б.Алимов раҳбарлигида объектишчи-ходимлари ва доимий тайёргарликдаги хизматлар шахсий таркибининг ҳаракатлари муҳокама қилиниб, йўл қўйилган камчиликларни бартараф этиш бўйича масъулларга вазифалар юкланди.

М.БОБОРАҲИМОВ,
Ёзёвон тумани ФВ
бўлими бошлиғи,
майор.

А.СОТВОЛДИЕВ,
бўлинма бошлиғи,
лейтенант.

МЕҲМОНХОНАДА МАШҒУЛОТ

Бухоро вилояти ФВБ томонидан мутасадди хизматлар ҳамкорлигида “Бухоро Гранд” меҳмонхонасида махсус-тактик ўқув машқи ўтказилди.

Машқ давомида бинода содир бўлган шартли ёнғинни бартараф этиш бўйича ўт ўчириш хизмати ходимларининг ҳаракатлари кўриб чиқилди.

Шунингдек, тадбирда ишчи-хизматчиларни бинодан олиб чиқиш

чоралари кўрилиб, шартли ёнғин сабабли жабрланганларни қутқариш ишлари амалга оширилди.

Тўлқин РУСТАМОВ,
Бухоро шаҳар ФВ
бўлими бошлиғи
ўринбосари, капитан.



Навоий кон-металлургия комбинати жамғармасига қарашли Самарқанд вилояти Каттақўрғон туманида жойлашган “Суғдиёна” болалар соғломлаштириш оромгоҳида мавсумда 500 нафарга яқин болажон мириқиб дам олапти.

ОРОМГОҲДА МУСОБАҚА

Оромгоҳда НКМК Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ҳамда мутасадди хизматлар ҳамкорлигида “Ёш қутқарувчи” мусобақаси ташкил этилди. Унда оромгоҳнинг етакчи ва тарбиячилари ҳамда болажонлар иштирокида ишчи-хизматчилар ва тарбияланувчилар ётоқхоналарида шартли равишда ёнғин келтириб чиқарилиб, инсонларни хавфсиз ҳудудга эвакуация қилиш ишлари бўйича амалий машғулот олиб борилди.



Мусобақаларда намунали иштирок этган болажонлар ва ғолиб иштирокчиларга “НКМК жамғармаси” ва марказ бошлиғининг фахрий ёрлик ҳамда эсдалик совғалари топширилди.

Маъруфжон ҲАЙИТОВ,
НКМК ЁХТТЭМ гуруҳ бошлиғи, катта сержант.

Суннатилло ҲАКИМОВ,
инспектор, катта сержант.

КУЧЛИЛАР ҲАМИША ҒОЛИБ

Ўзбекистон Республикаси ФВВ НКМК Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази томонидан Зарафшон, Учқудуқ ва Навоий шаҳридаги ёнғин хавфсизлиги бўлимларининг терма жамоалари ўртасида ёнғин-қутқарув спорти бўйича марказ биринчилиги ўтказилди.



Унда 40 нафардан ортиқ спортчи ходим иштирок этди. Мазкур мусобақа 6-ёнғин-қутқарув қисмининг спорт майдончасида бўлиб ўтди. Спортчилар ёнғин қутқарув эстафетаси, ишғол қилиш нарвонидан ўқув минорасининг 4-қаватига кўтарилиш, 100 метрга тўсиқлар оша югуриш ва жанговар ёйилиш турлари бўйича беллашдилар.

Ишғол қилиш нарвонида ўқув минорасининг тўртинчи қаватига кўтарилиш турида 1-ўринни Шимолий кон бошқармаси (Учқудуқ) ОЁМҚЎХБ терма жамоаси, 2-ўринни Марказий кон бошқармаси (Зарафшон) ОЁМҚЎХБ терма жамоаси, 3-ўринни Шимолий кон бошқармаси (Учқудуқ) ОЁМҚЎХБ терма жамоаси вакиллари қўлга киритдилар.

Қизғин ва мурасасиз кечган баҳсларда бошқа турлар бўйича ҳам ғолиб ва совриндорлар аниқланиб, улар марказ бошлиғининг эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Д.БАХРАНОВ,
катта инспектор, подполковник.

М.ҲАЙИТОВ,
НКМК давлат корхонасида ЁХТТЭМ
гуруҳ бошлиғи, катта сержант.

КЎНИКМАЛАР ОШИРИЛМОҚДА

Бухоро шаҳридаги Арк қўрғонида вилоят ФВБ томонидан амалий-тактик ўқув машқлари ташкил этилди.



Ўқув машқи режасига кўра, бинода шартли ёнғин келтириб чиқарилиб, фуқаролар бино ичидан хавфсиз ҳудудга эвакуация қилинди.

Жабрланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатилди.

Ўқув машқи штабида соҳавий хизматларнинг ҳаракатлари ва тайёргарлиги муҳокама қилиниб, зарур тавсиялар берилди.

Илёс МАТЧАНОВ,
Бухоро вилояти ФВБ бошлиғининг
биринчи ўринбосари, подполковник.

ТУНГГИ МАШҚ

Поп тумани ФВ бўлими ва мутасадди ташкилотлар иштирокида ўта муҳим ва тоифаланган объектлар, шунингдек, йирик савдо марказлари ҳамда бозорларда тунги махсус-тактик ўқув машқи ўтказиб келинмоқда.



Навбатдаги машқ “Фурумсарой” деҳқон ҳамда туман марказидаги “Табассум” буюм бозорларида ўтказилди.

Тадбир давомида тунги вақтда содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ҳамда ёнғинларнинг олдини олиш, кўнгилсиз ҳодисалар юзага келганда тўғри ва аниқ ҳаракат қилиш, фавқулодда вазиятлар оқибатларини ўз вақтида бартараф этишга оид ҳаракатлар амалга оширилди.

Ўткир ТУРДАЛИЕВ,
Поп тумани ФВ бўлими бошлиғи, подполковник.
Ислом МЕЛИБОЕВ, Наманган вилояти ФВБ
ОАВ ва ЖТБХҚ гуруҳи етакчи мутахасиси.

SOG' TANDA SOG'LOM AQL

Ўзбекистон Республикаси ФВВ Академияси ҳузурдаги Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida tinglovchilar o'rtasida maxsus kuch ishlatish mashqlari estafetasi (kross-fit) musobaqasi tashkil etildi.

Musobaqani markaz boshlig'ining birinchi o'rinbosi mayor A.Ochilov kirish so'zi bilan ochib, sohada olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta'minlash masalalariga qisqacha to'xtalib o'tdi va musobaqa ishtirokchilariga omad tiladi.

Bellashuvda yettita jamoa to'rtta shart bo'yicha bahs olib bordi. Bahslar qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tib, hakamlar hayati jamoalarning chiqishlarini munosib baholab bordi. Musobaqa yakuniga ko'ra, 6-guruh tinglovchilari xizmatchilar – L.Ergashev, X.Eshov, A.Mirzaxolov va M.Qosimovlardan tashkil topgan “Qutqaruvchilar” jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. G'olib jamoa va faol ishtirokchilarga esdalik sovg'alar va faxriy yorliqlar topshirildi.

J.SAIDOV, FVV Akademiyasi huzuridagi
BTvaMOM bo'linma boshlig'i.
O.RAHIMOV, markaz 1-guruh tinglovchisi,
oddiy askar.

ОТА КАСБИНИ УЛУҒЛАБ...

Жасур Турдиев 1-даражали сержант. У самимий, тўғрисуз, ўз ишига масъулият билан ёндашадиган, касбини, оиласини яхши кўрадиган йигит. Баъзан ҳазилкаш, очиққўнғил, тартибқоидани яхши кўрадиган, садоқатли дўст. Ҳар қандай вазиятда мулоҳаза билан иш юритади, етти ўлчаб бир кесади. 1978 йил 5 ноябрь куни Бухоро вилояти Ғиждувон шаҳрида Ҳалил Турдиев ҳамда Хусния Рўзиева хонадонидан таваллуд топган қаҳрамонимиз ёшлигидан техникага меҳр кўйди, автомобиль бошқаришга қизиқди. Умумтаълим мактабидан ҳам яхши ўқиди. Ўша кезлардаёқ автомобилнинг кў-

Жасур Турдиев. – Боиси, отам ҳам узоқ йиллар Навоий вилоятида ҳайдовчилик фаолияти билан шуғулланган. Шунданми, менинг юрагимда ҳам ҳайдовчиликка нисбатан меҳр уйғониб, отамнинг касбини эгаллашга кучли иштиёқ пайдо бўлган. Анча масъулиятли ҳамда ўзига хос шарафли касб бўлган ҳайдовчиликка нисбатан ўзгача меҳр ва шу касб орқали жамиятда ўз ўрнига эга бўлиш орзуси ҳамоҳанг равишда шаклланди. Яхши ҳайдовчи бўлишдек қатъий мақсадни олдимга кўйиб, тинмай ҳаракат қилдим. Инсон танлаган касбига қизиқса, меҳр кўйса, қийинчиликлардан чўчимаса, ўз

лик амалиётини мукаммал даражада ўрганишга интилди. Автомашинани чамбарагига ўтирган ҳар бир ҳайдовчи ўта хушёр ҳамда сезгир бўлиши, тезликни меъёрдан оширмаслиги, йўл ҳаракати тартиб-қоидаларига сўзсиз итоат этиши кераклигини тушунди. 1997 йили уни ҳарбий хизматга чақиришди. Бир йил давом этган ҳарбий хизмат унинг учун катта ҳаёт имтиҳони бўлди. 1999–2008 йиллар давомида Фавкуллода вазиятлар вазирлиги Марказий базасида ҳайдовчи вазифасида хизмат қилган. У етарли тажриба ва маҳоратга эга бўлган ҳайдовчи сифатида эътироф этиладиган бўлди.

Танлаган касбига меҳр кўйган қаҳрамонимиз 2008–2012 йилларда Мудофаа вазирлигига қарашли ҳарбий қисмларнинг бирида ҳам фидойилик билан хизмат қилди. Ғайрат-шижоати, ўз касбига садоқати, ҳамкасбларига ғамхўрлиги, тартиб-интизоми билан раҳбариятнинг ишончини қозонди. 2012 йилдан 2015 йилгача “Қамчиқ” қидирув-қутқарув отряди ҳайдовчи-қутқарувчи вазифасида ишлаган бўлса, 2016–2020 йилларда “Қамчиқ” махсус қидирув-қутқарув бошқармаси қутқарув отряди қидирув-қутқарув гуруҳида қутқарувчи-ҳайдовчи бўлиб фаолият юритди. 2020 йилдан ҳозирги вақтга қадар

Кучларига 25 йил”, “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларига 30 йил” эсдалик нишонларига муносиб кўрилган. “Гўзал ва бетакроримсан, муқаддас Ватаним, жоним сенга фидо, Ўзбекистоним!” шиори остида нишонланган мамлакатимиз Мустақиллигининг 25 йиллик байрами муносабати билан фахрий ёрлик билан тақдирланган. Албатта, қаҳрамонимизнинг садоқатли хизматлари эътирофига оид бу каби маълумотларни яна давом эттиришимиз мумкин...

Ҳарбий хизматчининг Ватанга матонат билан хизмат қилишида оила деб аталган муқаддас кўрғоннинг ҳам алоҳида ўрни бор, албатта. Жасур Турдиев рафиқаси Дилноза Исломова билан бир қиз, икки ўғилни комил инсон қилиб тарбиялашга интиломда. Бунда улар оила мустаҳкамлиги, тинч ва тотувлигига алоҳида эътибор беришмоқда.

Фарзандлари отасининг мана шундай шарафли касбда хизмат қилишидан фахрланишади. Қаҳрамонимизнинг ҳамкасблари орасида ҳам ҳурмати, ўрни бекиёс. Хизмати давомида кўплаб ёш ҳайдовчи-қутқарувчиларга автомобиль сир-асрорларини ўргатиб, кўплаб шогирдларни етиштириб чиқарган. Жасур Турдиевнинг босиб ўтган хизмат йўлига назар солсангиз, қаҳрамонимиз довоннинг фахрланишга арзийдиган фидойи ҳайдовчи-қутқарувчиси эканлигига яна бир карра амин бўласиз.



рилмаларидаги ҳолат, мавжуд носозликларни тўғри аниқлашга ҳаракат қилган. У автомобилни шунчаки ҳаракатланиш воситаси эмас, балки ҳақиқий дўст, деб ҳисоблаган.

– Оиламдаги ҳайдовчилик фаолиятига меҳр ҳисси мужассам атмосфера болалигидан мазкур соҳага қизиқишимнинг ортишига туртки бўлган, – дейди

соҳасида ижобий ютуқларга эришади.

Албатта, суҳбатдошимизнинг фикрларини давом эттирган ҳолда айтишимиз мумкинки, 1-даражали сержант Ж.Турдиев 1996 йилда Ўзбекистон Республикаси Мудофаасига кўмаклашувчи “Ватанпарвар” ташкилотида таҳсил олишга киришди. Бу ерда малакали ва маҳоратли ўқитувчи-педагоглардан йўл қодалари ва ҳайдовчи-



Ўзбекистон Республикаси Фавкуллода вазиятлар вазирлиги “Қамчиқ” махсус қидирув-қутқарув ёнғин-қутқарув бошқармаси қутқарув отряди қидирув-қутқарув гуруҳи катта техник қутқарувчи-ҳайдовчи лавозида фаолият юритиб келмоқда. У йўл-транспорт ҳодисаси юз берган жойга тезкорлик билан етиб бориш учун астойдил ҳаракат қилади.

Ж.Турдиевнинг самарали хизмат фаолияти “Ўзбекистон Республикаси Қуролли

Хизматда ҳам, маҳалла-кўй, яқинлар даврасида ҳам обрў-эътиборли кишилардан бири бўлган, оила тинчлиги, мустаҳкамлиги, фарзандлар бахту камолни кўзлаб, элу юртга садоқат билан хизмат қилиб келатган 1-даражали сержант Жасур Турдиевга ҳаёт йўли ҳамда хизмат фаолиятида улкан зафарлар тилаймиз.

Анвар ҚОБИЛОВ,
“Vaziyat” мухбири.

Шаҳзода АБДУСАТТОВА,
“Қамчиқ” МҚКБ
этакчи мутахассиси.

ИШЧИ ГУРУХЛАР ФАОЛИЯТИ

Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудидаги ёнғин хавфи юқори ва аҳоли гавжум бўлган жами 539 та объектнинг рўйхати шакллантирилди. Ташкил этилган ишчи гуруҳлар томонидан ҳозирги кунда 345 та объектда ўрганиш ишлари олиб борилиб, текширишлар давомида 1191 та камчилик аниқланди. Шундан 587 та камчилик жойида бартараф этилди.



Ёнғин хавфсизлиги талабларига риоя қилмаган жами 29 нафар жавобгар хизматчи ва фуқароларга маъмурий жарималар қўлланди. Ёнғин чиқиш хавфи бўлган 35 та корхона ва ташкилот омборхоналарининг иш фаолияти вақтинча тўхтатилди. 46 та носоз электр,

газ ва агрегатлардан фойдаланиш вақтинча тақиқлаб қўйилди. Ҳозирда бу каби тадбирлар жойларда давом эттирилмоқда.

Ш.ДЖУМАНИЯЗОВ,
майор.
А.ИСМАЙЛОВ,
лейтенант.
Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ инспекторлари.

Koson tumani FV, Ichki ishlar va Milliy gvardiya bo'limlari mas'ullari ishtirokida "Ko'hna qal'a" savdo majmuasining yong'in xavfsizligi holati o'rganildi.

KENG QAMROVDA

О'рганishlar davomida yo'laklar, mavjud yong'inga qarshi suv hovuzlari va yong'inga qarshi qalqonlar atrofi turli tovar mahsulotlari bilan to'sib qo'yilganligi aniqlandi. Yong'in-qutqaruv texnikalarining majmua hududida harakatlari kuzatilib, to'siqlarning olib tashlanishiga erishildi. Tadbirkorlarga bu kabi holatlar qutqaruv xizmati texnikalarining harakatini cheklab qo'yishiga sabab bo'lishi tushuntirildi va birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish tartibi o'rgatildi. Shuningdek,

mutaxassislar tomonidan cho'milish taqiqlangan suv havzalarida voyaga yetmagan yosh bolalarning cho'milayotganligi aniqlanib, ularga cho'kish bilan bog'liq noxush hodsalar bo'yicha zarur tavsiyalar berildi.

Hozirda joylarda bu kabi tadbirlar davom ettirilmoqda.

M.OSTONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'ining o'rinbosari, podpolkovnik.
N.DONIYOROV,
Koson tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.



ФВВ Академияси ҳузуридаги Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида тингловчилар иштирокида аэропорт ва транспорт корхоналарида ёнғин ўчириш усуллари мисолида ташкил қилинган кўргазмали амалий машғулот ўтказилди.

АМАЛДА КЎРИЛДИ



Машғулот ғоясига кўра, "ЯК-40" самолёти қанотида ёқилғи отсекарларида юзага келган носозликлар натижасида ёқилғининг ерга тўкилиши ва тарқалиши оқибатида ёнғин содир бўлди. Ҳодиса жойига марказ ўқув ёнғин-қутқарув қисмидан учта жанговар бўлинма юборилиб, ёнғин бартараф этилди.

Машғулот якунида марказ бошлиғининг 1-ўринбосари майор А.Очилов раҳбарлигида машқ давомида йўл қўйилган хато ва камчиликлар юзасидан муҳокама ўтказилди.

Ш.АҲМЕДОВ,
марказ цикл бошлиғи, подполковник.

ЧЎМИЛИШДА ХАВФСИЗЛИК

Чирчиқ шаҳри ҳудудида сувда чўкиш билан боғлиқ бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олиш мақсадида, "Ўрта ва қўйи деревацион", "Катта келес" "Бўз-сув" ҳамда "Зах" ва "Хоним" каналларида, шунингдек, Чирчиқ дарёсида чўмилишни қатъий тақиқлаш, профилактик тадбирлар амалга оширилмоқда.

Статистик маълумотларга кўра, сувда чўкиб ҳалок бўлган ёшларнинг 95 фоизига ота-

оналар томонидан назоратсиз қолдирилганлиги ҳамда ўзбошимчалик билан тақиқланган жойларда чўмилиш ҳолатлари сабаб бўлган.

Шундай экан, бу каби ҳодисаларнинг олдини олиш учун нафақат масъул хизматлар вакиллари, балки ҳар биримиз фаол ва огоҳ бўлишимиз зарур.

Ф.МАҲМУДОВ,
Тошкент тумани ФВ бўлими бўлинма бошлиғи, катта лейтенант.

Оҳангарон шаҳар ФВ бўлими ходимлари томонидан "Оҳангарон деҳқон бозори" МЧЖ ҳамда савдо-сотик дўконларида ёнғинлар ва бошқа тусдаги фавқулодда вазиятларнинг олдини олишга оид тарғибот ишлари амалга оширилмоқда.

ДЕҲҚОН БОЗОРИДА



Тадбирлар давомида тадбиркорларга савдо дўконларида куннинг иссиқ вақтларида ўрнатилаётган совутич ва бошқа электр жиҳозларини назоратсиз қолдирмаслик, дўконлардаги электр сим ва кабелларни мутахассис кўригидан ўтказиш, носоз ҳолатда бўлган розетка ва симлардан фойдаланмаслик ва бошқа вазифалар юзасидан тушунтиришлар берилиб, эслатма материаллари тарқатилди.

Азизбек ҚЎШАҚОВ,
Оҳангарон шаҳар ФВ бўлими бошлиғи ўринбосари, капитан.

ЎРГАНИШ

"Чодак" дам олиш масканида канатга чиққан одамнинг кутилмаганда дор йўлида тўхтаб қолганлиги акс этган лавҳа бўйича вилоят ФВБ бошлиғи раҳбарлигида ишчи гуруҳи тузилиб, ўрганиш ишлари амалга оширилди.

Маълумки, Поп туманининг олис ҳудудларидан бири – Гулистон маҳалласида тоғ ён бағрида меҳмонларнинг кўнгилли дам олиши учун тадбиркорлар томонидан 4 та дам олиш масканида осма кўприк, канат, тахтали кўприк, кабинали канат йўли, шиша кўприк, лифт автодром ва яна қатор аттракционлар ташкил этилган.

Ўрганишлар натижасида аён бўлдики, дам олгани келган фуқаролардан 1 нафари ҳудуддаги мавжуд осма канатда учаётган пайтда тўхтаб қолган, бу вақтда осма канат ишчи-ходим томонидан мойланаётган бўлган. Бундан ташқари, уч нафар аёл осма канат ишчи-ходимларининг йўриқ-



номасига қарамасдан ўзбошимчалик билан ҳар хил ҳаракатлар қилган ва бунинг оқибатида канат тўхтаб қолган. Ҳозирда фуқаролар соғ-саломат бўлиб, ҳеч ким тан жароҳат олмаган.

Тадбир давомида аттракционларнинг ҳо-

лати ҳам тўлиқ ўрганиб чиқилиб, қонунда белгиланган тартибда ҳужжатлар расмийлаштирилди ва йўналишлар бўйича кўшимча йўриқномалар берилди.

Рустам ЭГАМБЕРДИЕВ,
Наманган вилояти ФВБ ОАВ ва ЖТБҲҚГ етакчи мутахассиси.

YONG'INDAN SAQLANING

Yong'in kelib chiqish sabablari turlicha. Ayniqsa, bolalarning o'yin-qaroqligi oqibatida sodir bo'lgan yong'in juda xavfli. Shunday ota-onalar ham borki, ular e'tiborsizlik va mas'uliyatsizliklari tufayli farzandlari yosh bo'lishiga qaramay, ularni yolg'iz uyda qoldirib ketishadi, hatto, gugurtlarni ularning qo'li yetmaydigan joylarga yashirishni ham unutishadi.

Bunday holda bolalar gugurt, elektr maishiy-asboblar va gaz jihozlaridan bema'lol foydalanishlari mumkin. Agar uyda yong'in chiqqudek bo'lsa, dahshatga tushgan bolalar burchaklarga yoki shkaf, karavotlar ostiga berkinib olishlari tabiiy. Natijada esa olov borgan sari kuchayib, o'ta ayanchli tus olishi muqarrar...

Yong'in xavfsizligi chora-tadbirlari yong'in xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlari, yong'in xavfsizligi sohasidagi normativ hujjatlarga muvofiq, shuningdek, yong'inlarga qarshi kurashish tajribasi, moddalar, materiallar, texnologik jarayonlar, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar, binolar va inshootlarning yong'in xavfliligiga baho berish asosida ishlab chiqiladi.

Shu bois ham biz kattalar hamisha farzandlarimizga yong'indan ehtiyotkorona foydalanish kerakligini uqtirishimiz, gugurt, elektr maishiy-asboblar va gaz jihozlarining o'yinchoq emasligini tushuntirib borishimiz shart.

N.O'RMONOVA,

Toshkent shahar FVB YXTTEB va
PB mutaxassisi, katta serjant.

QURILISH QOIDALARI

Qashqadaryo viloyati FVB xodimlari tomonidan "G'ayrat", "Koson sanoat montaj", "Arab qovchin iqboli", "Hamkor biznes ko'p tarmoqli", "Navro'z kapital qurilish", "Ixtisoslashtirilgan neft-gaz ta'mir" MCHJlari tomonidan olib borilayotgan qurilish obyektlarida yong'inga qarshi talablarning o'z vaqtida bajarilishiga e'tibor qaratilmoqda.

O'rganishlar davomida yong'inga qarshi suv hovuzlari, yer osti suv olgichlari, nasoslar va ichki yong'in o'chirish jo'mraklarini o'rnatish ishlarining o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi, binolarda yong'indan avtomatik ravishda xabarlash qurilmalarining montaj qilinishi, tashqi yoritish chiroqlarining o'rnatilishi bilan bog'liq qator kamchiliklar aniqlandi.

Kamchiliklarni bartaraf etish va zarur choralar ko'rish uchun bosh quruvchi va buyurtmachi tashkilotlarga axborotnomalar, viloyat, shahar va tuman hokimliklariga yozma taqdimnomalar kiritildi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiya-siga ham taqdimnoma kiritilib, qurilish tashkilotlariga nisbatan jarima choralarini qo'llanilishi ta'minlandi.

Hozirda bu boradagi tadbirlar davom ettirilmoqda.

Sa'dulla ATABAYEV,

Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim
boshlig'i, mayor.

B.ABDUJABBOROV,
Chiroqchi tumani FV bo'limi
inspektori, leytenant.

Hozirgi vaqtda yong'in xavfsizligi talablari turli me'yoriy hujjatlar: davlat standartlarida, qurilish va shaharsozlik me'yorlari va qoidalari, yong'in xavfsizligi me'yorlari va qoidalari, tarmoqli me'yoriy manbalar va me'yoriy manbalarining boshqa turlarida o'z ifodasini topgan. Umumiy tushunchalar, binolar, inshootlar va ular konstruksiyalarining olovbardoshligi, yong'indan himoyalash vositalarini qo'llash zarurligini o'z ichiga oluvchi me'yorlarning asosiy tushunchalari «Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi» normativ hujjatida o'z ifodasini topgan.

INSHOOTLARNING YONG'IN XAVFSIZLIGI

Olov tarqatmaydigan qurilish konstruksiyalari noorganik strukturaga ega bo'ladi va yong'inbardosh konstruksiya deb hisoblanadi. Ular qoidaga ko'ra, olovdan himoyalashga ehtiyoj sezmaydi, ya'ni ularni yong'indan himoya qilish talab etilmaydi. Biroq metall konstruksiyalarga ularning olovbardoshligini oshirish uchun olovdan himoya qilish bo'yicha qayta ishlov beriladi. Yong'in vaqtida metall konstruksiyalar 15 daqiqadan keyin o'zining yuk ko'taruvchanlik qobiliyatini yo'qotadi, shuning uchun bunday vaziyatlarda konstruksiyalarning talab etilgan chegarasi bu qiymatdan oshib ketsa, metall kolonnalar, fermalar va balkalar olovdan himoya qilish xususiyatini yo'qotadi.

Shuning uchun sanoat obyektlarida qurilish mahsulotining ancha zamonaviy turlarini qo'llash bilan yong'in xavfsizligini tegishli darajada ta'minlash uchun milliy me'yoriy baza ham zamonaviy xalqaro talablarga mos bo'lmog'i zarurdir.

Samandar SAMANDAROV,
Tuproqqal'a tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, katta leytenant.

UCHRASHUV

Olmazor tumanidagi "COCH KANTRAKSHEN" MCHJ qurilish tashkiloti ishchi-xodimlari ishtirokida yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf qilishga bag'ishlangan uchrashuv o'tkazildi.

Unda Olmazor tumani FV bo'limi PvaNB inspektori katta leytenant M. Murodov tomonidan yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlarini bartaraf qilish usullari, is gazidan zaharlanishning oldini olish, o'ta xavfli va yuqumli kasalliklarga qarshi olib boriladigan epidemiologik chora-tadbirlar va boshqa vazifalar yuzasidan ma'lumotlar berildi.



Sardor XURRAMOV,
Olmazor tumani FV bo'limi
NTB boshlig'i, kapitan.

ДОЛЗАРЬ 30 КУНЛИК

Жорий йилнинг 10 июлидан 10 август кунига қадар мамлакатимизда эълон қилинган "Ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўйича долзарб 30 кунлик" тадбирлари доирасида Яшнобод тумани ФВ бўлими ходимлари томонидан қатор вазифаларни бажариш кўзда тутилган.

Хусусан, ёнғин хавфсизлигини таъминлаш ва ёнғин билан боғлиқ турли бахтсиз ҳодисаларнинг олдини олиш

юзасидан ташкилот ва идораларда, ижтимоий объектларда, савдо мажмуалари ва бозорларда, аҳоли орасида тарғибот ва ташвиқот тадбирлари олиб борилади.

Шунингдек, жамоат жойларида кўргазмалар чиқишлар, бозорларда машғулотлар ташкил қилиниб, аҳолига тарғибот материаллари тарқатилади.

Ш.САДЕНОВ,
Яшнобод тумани ФВ
бўлими мутахассиси.

ОГОҲЛИК

Ёнғин хавфсизлиги чора-тадбирлари, ёнғин хавфсизлиги тўғрисидаги қонун ҳужжатлари, ушбу соҳасидаги норматив ҳужжатларга мувофиқ, шунингдек, ёнғинларга қарши курашиш тажрибаси, моддалар, материаллар, технологик жараёнлар, буюмлар, конструкциялар, асбоб-ускуналар, бинолар ва инshootларнинг ёнғин хавфлиликларига баҳо бериш асосида ишлаб чиқилади.

Айтиш жоизки, ёнғинлар сони йилдан-йилга ортиб бормоқда. Улар катта миқдорда моддий зарар келтиришдан ташқари, энг аянчлиси – ўлимга сабаб бўляпти. Шунинг учун болаларни уйда қаровсиз қолдирмаслик, гугуртларни болаларнинг қўли етмайдиган жойда сақлаш, уйдан чиқиш чоғида электр иситгич ва газ асбобларни ўчириш, болаларга олов билан ўйнаш, электр иситиш асбоблари, маиший техника воситаларидан фойдаланишга рухсат бермаслик, ёнғин келиб чиққудай бўлса, қандай ҳаракатлар қилиш кераклигини ўқитиш зарур.

Унутмайлик, ёнғин офатини ўчиргандан кўра, унинг олдини олган афзал.

С.АБДУЛЛАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси
Президенти Администрацияси
биносидан ЁХТТЭ 1-бўлимаси
мутахассиси, кичик сержant.

ЭЪТИБОРЛИ БЎЛАЙЛИК!

Қорақалпоғистон Республикаси ФВБ томонидан ҳар бир маҳалла ва овул фуқаролар йиғинларида навбатчиликлар ташкил қилиниб, алоҳида дастурлар асосида профилактик тадбирлар ўтказилапти.

Жумладан, жойлардаги фаоллар ҳамкорлигида хонадонлар ҳамда ҳудуддаги кўп қаватли уйлар, маъмурий биноларда ёнғинга қарши кўрилган чоралар, электр ва газдан фойдаланиш тартиб-қоидаларга амал қилинаётганлик ҳолати ўрганилиб, уй эгаларига тавсиялар берилган ҳолда, камчиликлар жойида бартараф этиляпти.

Ўрганишлар жараёнида электр тармоғига ўзбошимчалик билан совутгични улаб олган 12 нафар тадбиркорга нисбатан тегишли чоралар қўлланди.

Ҳозирда бу каби тадбирлар жойларда давом эттирилмоқда.

Султанбек
ТЛЕУБЕРГЕНОВ,
Қорақалпоғистон
Республикаси ФВБ
бўлинма инспектори,
катта лейтенант.

ТАРҒИБОТ

Ташкент шаҳар Олмазор тумани "Чигатой дарвоза" МФЙда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш, фавқулodда вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилишга бағишланган профилактик суҳбат ва учрашувлар ташкил қилинмоқда.

Мазкур тадбирлар давомида иштирокчиларга ёнғин ва бошқа тусдаги фавқулodда

вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф қилиш юзасидан тушунтиришлар берилиб, мавзуга доир материаллар тарқатилди.

Рустам ИСАЕВ,
Ташкент шаҳар ФВБ
ЁХТТЭБ мутахассиси,
катта сержant.

ҚУТҚАРУВ

Наманган вилояти ФВБ қисқа рақамига Давлатобод тумани ҳудудидаги кўп қаватли уйларнинг бирида ёш боланинг хона ичида қолиб кетганлиги юзасидан хабар келиб тушган. Шунга асосан бошқарма қутқарувчилари воқеа жойига етиб борган.

Тезкор амалий ҳаракатлар натижасида уй эшиги очилиб, 1,5 ёшли болажон ичкаридан соғ-омон олиб чиқилди



ва онасига топширилди.
Қаҳрамон САТТОРОВ,
Наманган вилояти
ФВБ ОАВ ва ЖТБХҚГ
бошлиғи, капитан.

КИТОБ – ҲАЁТ БОҒБОНИ

Фавқулдда вазиятлар вазирлиги ҳузуридаги Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш марказида 150 нафар тингловчи, марказ доимий таркиби, ОАВ вакиллари иштирокида “Энг яхши ёш китобхон” кўрик-танлово ташкил этилди.

Кўрик-танловнинг 1-шартида Соҳибқирон Амир Темур бобомиздан ёш авлодга мерос қилиб қолдирилган “Темур тузуклари” китобида назарда тутилган панд-насихатлар асосида тузилган саволларга жавоб берилди ва асар шарҳланди. Миллий адабиётимиз тимсоли бўлган адибларимиз ҳаёти ва ижоди юзасидан маълумотлар бериш, шеърларидан ифодали айтиш 2-шартда бажарилган бўл-

са, 3-шартда бадиий сахна кўриниши намойиш қилинди.

Беллашувда биринчи ўринга муносиб деб топилган оддий аскар Миржалол Каримов томонидан шарҳланган ўзбек романчилиги асосчиси Абдулла Қодирий ҳаёти ва ижоди, ёзувчининг ватанпарварлиги, элпарварлиги тўғрисидаги маълумотлар иштирокчиларда фахр туйғусини уйғотди.



Танлов ғолиблари Марказ раҳбариятининг эсдалик совғалари ва фахрий ёрлиқлари билан тақдирланди.

О.МАХАММАТОВ,
ФВВ Академияси ҳузуридаги БТ ва МО цикл ўқитувчиси, капитан.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқулдда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти — 15:00.
Топширилди — 15:00.

Навбатчи:
М.САНАЕВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди ва
изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган
материаллар манбаси
кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон
Матбуот ва ахборот
агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-рақам
билан рўйхатга олинган.
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун — 382

Газета
“BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўгалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т
Адади — 5983 нусха

МАЪНАВИЯТ – КОМИЛ ИНСОН ФАЗИЛАТИ

Маънавият – поклик, ҳалоллик, одоб-ахлоқ, мардлик, жасорат, инсонпарварлик ва ватанпарварлик каби фазилатларда яққол намоён бўлади. Бу фазилатлар аждодларимиз томонидан доимо ардоқланган. Улар асосида ҳаёт тарзи белгиланган ва таълим-тарбия жараёнлари олиб борилган. Шу боис, Ўзбекистон заманидан кўплаб буюк сиймолар, мард ва жасур ўғлонлар етишиб чиққан.

Орадан кўп асрлар ўтса ҳам номлари ҳануз жаҳонга машҳур бўлган Муҳаммад Мусо ал-Хоразмий, Аҳмад ал-Фарғоний, Имом ал-Бухорий, Имом ат-Термизий, Имом ал-Мотуридий, Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Маҳмуд аз-Замашарий, Абдуҳолик Фиждувоний, Бурҳониддин Марғиноний, Баҳо-

уддин Нақшбанд, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий каби бобокалонларимиз маънавият дарғаларидир.

Маънавиятни шакллантириш ва юксалтиришда оила, маҳалла ва таълим-тарбия тизимининг ўрни беқиёс. Чунки инсоннинг энг соф ва покиза туйғулари, илк ҳаётий

тушунча ва тасаввурлари айнан шу ижтимоий муҳитлар зами-нида шаклланади.

Маънавияти юксак халқ яшаётган жамият ва давлат ҳар жиҳатдан кучли бўлади. У иқтисодий-ижтимоий ҳаёт тизимининг шаклланиши, ўзгариши ва инқирозга юз тутишига кучли таъсир кўрсатади. Инсонларнинг маънавияти бойиб борсагина жамият ривожланади. Маънавият қашшоқлашса, жамият таназзулга юз туттади. Маънавиятнинг туб негизи – маърифат, ўзагини эса – инсон ахлоқи ташкил қилади. Маърифат ўз навбатида таълим-тарбия жараёни билан,

ахлоқ бўлса, инсон одоби билан чамбарчас боғлиқдир.

Ўз даврида бобомиз буюк мутафаккир Абу Наср ал-Фаробий: “Маънавиятнинг икки асосий сифати бор: Ё ўзингники бўлади, ё бировники. Бировнинг ўз маънавиятини тиқиштириб, сенинг маънавиятига таҳдид солиши фақат битта мақсадни – сенинг маънавиятигни йўққа чиқаришни кўзлайди”, – деб фикр билдирган эди. Фаробий ҳар қандай жамият учун маънавият борасида иккита вазифа устувор бўлишини: биринчидан, ўз маънавиятини мудом тақомиллаштириш, иккинчидан, уни ўзга

маънавият тажовузидан асрай билишни таъкидлайди. Ана шу фикрлар бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас. Шу сабабли биз педагоглар ёш авлодга таълим-тарбия бераётганимизда маънавият соҳасига ҳам алоҳида эътибор қаратишимиз зарур. Шундагина биз кўп асрлик тарихга эга миллий маънавиятмизни ва ўзлимизни сақлаб қоламиз. Чунки, маънавият комил инсон фазилатларидан биридир.

Таҳир БУРХАНОВ,
Қуролли Кучлар Академияси Ҳарбий психология ва педагогика кафедраси доценти, п.ф.ф.д.(PhD).

“КОИНОТ”ДА БЕЛЛАШУВ

“Қамчиқ” махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармаси баркамол ва ватанпарвар авлодни тарбиялаш тадбирларига муносиб ҳисса қўшиб келмоқда.

Ана шундай тадбирлардан бири “Ўзбеккўмир” АЖга қарашли “Коинот” болаларни соғломлашти-



риш оромгоҳида ўтказилди.

Унда 4 та жамоа иштирок этди. Қизгин беллашув натижаларига кўра, 3-ўринни 3-сайёра – “Ер” жамоаси, 2-ўринни 1-сайёра – “Меркурий” жамоаси ва 1-ўринни 2-сайёра – “Венера” жамоалари қўлга киритдилар.

Ғолиб ва совриндорлар “Қамчиқ” МҚКБ раҳбарияти томонидан диплом ва қимматбаҳо совғалар билан тақдирландилар.

И.БЎТАБОЕВ,
“Қамчиқ” МҚКБ АҚО командири, капитан.